



## PHILOSOPHICAL AND MORAL PROBLEMS OF THE SOCIAL SCIENCES IN NEW UZBEKISTAN

*Farrukh Nasirdinovich Usmonov*

*Associate Professor, Samarkand Campus*

*University of Economics and Pedagogy*

[farno1929@gmail.ru](mailto:farno1929@gmail.ru)

*Samarkand, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** New Uzbekistan, social sciences, philosophy, ethics, spiritual values, social consciousness, globalization, methodology, social development.

**Received:** 04.04.26

**Accepted:** 05.04.26

**Published:** 06.04.26

**Abstract:** This article provides a scientific and theoretical analysis of the philosophical and ethical problems of social sciences in the context of the New Uzbekistan. The study examines the processes of social modernization, the transformation of spiritual and moral values, new paradigms of the relationship between the individual and society, and the methodological foundations of social sciences. Particular attention is given to the preservation of national moral values in the context of globalization, the formation of civic consciousness, and the development of social responsibility. The article also highlights the role of social sciences in social development, their philosophical and methodological foundations, and their relationship with ethical principles.

## YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY FANLARNING FALSAFIY-AXLOQIY MUAMMOLARI

*Farrux Nasirdinovich Usmonov*

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti*

*Samarqand kampusi dotsenti*

[farno1929@gmail.ru](mailto:farno1929@gmail.ru)

*Samarqand, O‘zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** Yangi O‘zbekiston, ijtimoiy fanlar, falsafa, axloq, ma’naviy

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy fanlarning

qadriyatlar, ijtimoiy ong, globalizatsiya, metodologiya, jamiyat taraqqiyoti.

rivojlanishida yuzaga kelayotgan falsafiy va axloqiy muammolar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda jamiyatning modernizatsiya jarayonlari, ma'naviy qadriyatlarning transformatsiyasi, shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning yangi paradigmalari hamda ijtimoiy fanlarning metodologik asoslari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, globalizatsiya sharoitida milliy axloqiy qadriyatlarni saqlash, fuqarolik ongini shakllantirish va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish masalalari tahlil etiladi. Maqolada ijtimoiy fanlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, ularning falsafiy-metodologik asoslari hamda axloqiy mezonlar bilan uyg'unligi ilmiy yondashuv asosida yoritiladi.

---

## ФИЛОСОФСКО-ПРАВСТВЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНЫХ НАУК В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

**Фаррух Насирдинович Усмонов**  
Доцент Самаркандского кампуса  
Университета экономики и педагогики  
[farno1929@gmail.ru](mailto:farno1929@gmail.ru)  
Самарканд, Узбекистан

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Узбекистан, философия, ценности, глобализация, общества. социальные нравственность, общественное методология,

овый науки, духовные сознание, развитие

**Аннотация:** В данной статье проводится научно-теоретический анализ философских и нравственных проблем социальных наук в условиях Нового Узбекистана. Рассматриваются процессы модернизации общества, трансформация духовно-нравственных ценностей, новые парадигмы взаимодействия личности и общества, а также методологические основы социальных наук. Особое внимание уделяется вопросам сохранения национальных духовных ценностей в условиях глобализации, формированию гражданского сознания и развитию социальной ответственности. В статье раскрывается роль социальных наук в общественном развитии, их философско-методологические основы и взаимосвязь с нравственными принципами.

---

**Kirish.** XXI asr boshlarida dunyo miqyosida kechayotgan global ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlar jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichini shakllantirmoqda. Bunday sharoitda ijtimoiy fanlar inson va jamiyat hayotidagi murakkab jarayonlarni ilmiy jihatdan tushuntirish, ularni nazariy asoslash hamda rivojlanish istiqbollari belgilashda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan holda ijtimoiy ong, ma‘naviy qadriyatlar va axloqiy tamoyillarning yangicha mazmun kasb etishiga olib kelmoqda. Shu jihatdan ijtimoiy fanlarning falsafiy va axloqiy muammolarini tadqiq etish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Yangi O‘zbekiston konsepsiyasi jamiyatni demokratlashtirish, huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish, inson qadrini ulug‘lash kabi ustuvor g‘oyalarga asoslanadi. Mazkur jarayonlar ijtimoiy fanlarning nazariy va metodologik asoslarini qayta ko‘rib chiqishni, jamiyat rivojida inson omilining o‘rnini chuqurroq tahlil qilishni talab etadi. Chunki ijtimoiy fanlar nafaqat ijtimoiy jarayonlarni tahlil qiladi, balki jamiyatning ma‘naviy-axloqiy rivojlanishiga yo‘naltiruvchi ilmiy qarashlarni ham shakllantiradi. Shuning uchun ham ijtimoiy fanlarning falsafiy asoslari, ularning axloqiy mezonlar bilan o‘zaro uyg‘unligi hamda jamiyat taraqqiyotiga ta‘siri masalalarini tadqiq qilish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Globalizatsiya jarayonlarining kuchayishi, axborot makonining kengayishi hamda turli madaniy va mafkuraviy oqimlarning o‘zaro ta‘siri sharoitida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ma‘naviy merosni zamonaviy taraqqiyot talablari bilan uyg‘unlashtirish muammosi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy fanlar jamiyatda axloqiy mezonlarni mustahkamlash, yosh avlodning ma‘naviy kamolotini ta‘minlash, fuqarolik ongini shakllantirish kabi vazifalarni ham bajaradi. Bu esa ijtimoiy fanlarning falsafiy-axloqiy muammolarini kompleks ravishda o‘rganishni, ularning metodologik asoslarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Maqolaning maqsadi Yangi O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy fanlarning rivojlanishida namoyon bo‘layotgan falsafiy va axloqiy muammolarni tahlil qilish, ularning nazariy asoslarini ochib berish hamda jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqot jarayonida ijtimoiy-falsafiy tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalaniladi. Natijada ijtimoiy fanlarning zamonaviy jamiyatdagi o‘rni, ularning axloqiy qadriyatlar bilan bog‘liqligi hamda ijtimoiy ongni shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan yoritiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlar tahlili.** Mazkur tadqiqot ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida olib borilib, unda jamiyat taraqqiyoti, ma‘naviy qadriyatlar evolyutsiyasi

hamda ijtimoiy fanlarning metodologik asoslarini kompleks tahlil qilishga e'tibor qaratiladi. Tadqiqot metodologiyasi ijtimoiy hodisalarni tizimli, tarixiy va qiyosiy tahlil qilish tamoyillariga asoslanadi. Xususan, tizimli yondashuv orqali ijtimoiy fanlarning jamiyat rivojidadagi o'rni va ularning falsafiy-axloqiy muammolari o'zaro bog'liq holda o'rganildi. Tarixiy yondashuv esa ijtimoiy fanlarning shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish, ularning nazariy qarashlari evolyutsiyasini aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, qiyosiy tahlil metodi yordamida milliy va jahon ilmiy maktablari doirasidagi ijtimoiy-falsafiy qarashlar o'rtasidagi umumiylik va farqlar o'rganildi.

Tadqiqot jarayonida analiz va sintez, induksiya va deduksiya, mantiqiy umumlashtirish hamda konseptual tahlil metodlaridan ham foydalanildi. Ushbu metodlar orqali Yangi O'zbekiston sharoitida ijtimoiy fanlarning falsafiy-axloqiy muammolari, ularning jamiyat ma'naviy hayoti bilan uzviy aloqadorligi hamda ijtimoiy ongning shakllantirishdagi roli ilmiy asosda ochib berildi. Shu bilan birga, ijtimoiy fanlarning zamonaviy taraqqiyotida globalizatsiya jarayonlari, axborotlashgan jamiyat sharoiti va madaniy integratsiya omillari ham metodologik tahlilning muhim komponenti sifatida ko'rib chiqildi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy fanlarning falsafiy va axloqiy muammolari jahon va milliy ilmiy tafakkur tarixida keng o'rganilgan. G'arb falsafasida ijtimoiy taraqqiyot, axloqiy qadriyatlar va jamiyat tuzilishini tahlil qilish masalalari I.Kant, G.Hegel, K.Marx, M.Weber kabi mutafakkirlar asarlarida chuqur yoritilgan. Ularning ilmiy merosida jamiyatning axloqiy asoslari, shaxs va jamiyat munosabatlari hamda ijtimoiy jarayonlarning falsafiy mohiyati keng tahlil qilingan. Ayniqsa, ijtimoiy fanlarning metodologik asoslarini ishlab chiqishda ushbu mutafakkirlarning nazariy qarashlari muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Sharq falsafiy tafakkurida ham ijtimoiy va axloqiy masalalar muhim o'rin egallagan. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar asarlarida jamiyat taraqqiyoti, insonning ma'naviy kamoloti, axloqiy qadriyatlar va adolatli jamiyat g'oyasi chuqur tahlil qilingan. Ularning ilmiy-falsafiy qarashlari ijtimoiy fanlarning insonparvarlik mohiyatini ochib berishda muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy o'zbek olimlari tomonidan ham ijtimoiy fanlarning metodologiyasi, jamiyat ma'naviy taraqqiyoti hamda axloqiy qadriyatlar masalalari keng tadqiq etilmoqda. Ularning ilmiy izlanishlarida Yangi O'zbekiston sharoitida ijtimoiy fanlarning rivojlanish yo'nalishlari, milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillarning uyg'unligi, shuningdek, fuqarolik jamiyati shakllanishining ijtimoiy-falsafiy asoslari yoritilgan.

Shu tariqa, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili ijtimoiy fanlarning falsafiy-axloqiy muammolari ko'p qirrali va murakkab ilmiy masala ekanligini ko'rsatadi. Bu esa mazkur muammoni zamonaviy ijtimoiy jarayonlar, milliy taraqqiyot strategiyasi hamda global ilmiy qarashlar kontekstida chuqur o'rganishni talab etadi.

**Tahlil va natijalar.** Yangi O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy islohotlar jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichini shakllantirmoqda. Bu jarayon ijtimoiy fanlarning mazmuni, metodologiyasi hamda ularning jamiyat hayotidagi o'rnini va vazifalarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Ayniqsa, ijtimoiy fanlar nafaqat jamiyatdagi mavjud ijtimoiy jarayonlarni ilmiy jihatdan izohlash, balki ularning falsafiy mohiyatini ochib berish hamda axloqiy mezonlarini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, Yangi O'zbekiston sharoitida ijtimoiy fanlarning falsafiy-axloqiy muammolarini tahlil qilish jamiyat taraqqiyotining muhim ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy fanlarning asosiy vazifalaridan biri jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy o'zgarishlarni nazariy jihatdan tushuntirish va ularning istiqbollari ilmiy asosda belgilashdan iboratdir. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida inson qadrini ulug'lash, adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kabi ustuvor tamoyillar ijtimoiy fanlar oldiga yangi ilmiy vazifalarni qo'ymoqda. Bu vazifalar, avvalo, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning falsafiy asoslarini o'rganish, shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni chuqur tahlil qilish hamda ma'naviy qadriyatlar tizimini mustahkamlash bilan bog'liqdir.

Zamonaviy jamiyatda globalizatsiya jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda madaniy integratsiya jarayonlari ijtimoiy fanlarning tadqiqot obyekti yanada murakkablashtirmoqda. Natijada jamiyat hayotida yangi ijtimoiy muammolar va axloqiy dilemmalar paydo bo'lmoqda. Jumladan, axborot makonining kengayishi natijasida turli mafkuraviy oqimlarning ta'siri kuchayib, yoshlar ongida turli qarama-qarshi qadriyatlar shakllanishi mumkin. Bunday sharoitda ijtimoiy fanlar jamiyatda sog'lom ijtimoiy ongni shakllantirish, ma'naviy barqarorlikni ta'minlash hamda milliy qadriyatlarni asrab-avaylashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy fanlarning falsafiy-axloqiy muammolari bir necha muhim yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Birinchidan, jamiyat taraqqiyotida shaxs omilining o'rnini tobora ortib borayotgani ijtimoiy fanlarda insonparvarlik tamoyillarini kuchaytirishni talab etadi. Shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlash, uning ijodiy salohiyatini rivojlantirish hamda ijtimoiy faolligini oshirish jamiyat

taraqqiyotining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu bois ijtimoiy fanlar shaxsning ma'naviy kamoloti, axloqiy mas'uliyati va ijtimoiy faolligini tadqiq etishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Ikkinchidan, jamiyatda ijtimoiy adolat, hamjihatlik va barqarorlikni ta'minlash masalasi ijtimoiy fanlarning muhim falsafiy-axloqiy muammolaridan biri hisoblanadi. Yangi O'zbekiston sharoitida davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning yangi modeli shakllanib, unda fuqarolik jamiyati institutlarining roli tobora ortib bormoqda. Bu jarayon ijtimoiy fanlarda demokratik qadriyatlar, ijtimoiy hamkorlik va fuqarolik mas'uliyati kabi tushunchalarni chuqur o'rganishni talab etadi.

Uchinchidan, milliy ma'naviy meros va zamonaviy taraqqiyot o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash masalasi ham muhim ilmiy muammolardan biridir. Ijtimoiy fanlar tarixiy merosni zamonaviy ilmiy tafakkur bilan uyg'unlashtirish orqali jamiyat taraqqiyotining ma'naviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu borada Sharq mutafakkirlarining axloqiy qarashlari, insonparvarlik g'oyalari va adolatli jamiyat haqidagi ta'limotlari muhim nazariy manba hisoblanadi. Ularning ilmiy merosi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillar uyg'unligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

To'rtinchidan, ijtimoiy fanlarning metodologik rivoji ham muhim tahlil obyekti hisoblanadi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar ko'rsatadiki, ijtimoiy fanlarda fanlararo integratsiya jarayonlari tobora kuchayib bormoqda. Falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik, psixologiya va madaniyatshunoslik kabi fanlarning o'zaro integratsiyasi jamiyatdagi murakkab ijtimoiy jarayonlarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Bu esa ijtimoiy fanlarning metodologik imkoniyatlarini kengaytirib, yangi ilmiy yondashuvlarning shakllanishiga olib keladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Yangi O'zbekiston sharoitida ijtimoiy fanlarning rivojlanishi jamiyatning ma'naviy va axloqiy taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. Ijtimoiy fanlar jamiyatda ijtimoiy ongini shakllantirish, fuqarolik madaniyatini rivojlantirish hamda ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlashda muhim nazariy va metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, ular jamiyat taraqqiyotining strategik yo'nalishlarini ilmiy jihatdan asoslash, ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularning yechimlarini ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi.

**Xulosa.** Yangi O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy islohotlar jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichini shakllantirib, ijtimoiy fanlar oldiga muhim ilmiy vazifalarni qo'yimoqda. Mazkur tadqiqot doirasida ijtimoiy fanlarning falsafiy va axloqiy muammolari jamiyat rivojining zamonaviy jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy fanlar jamiyat hayotidagi murakkab jarayonlarni

tushuntirish, ularning nazariy asoslarini ishlab chiqish hamda ijtimoiy ongni shakllantirishda muhim ilmiy vosita hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy fanlarning falsafiy-axloqiy muammolari, avvalo, shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning yangi mazmun kasb etishi, globalizatsiya jarayonlari ta'sirida ma'naviy qadriyatlarning transformatsiyasi hamda axborotlashgan jamiyat sharoitida ijtimoiy ongning shakllanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy fanlarning asosiy vazifalaridan biri jamiyat taraqqiyotining ma'naviy-axloqiy asoslarini mustahkamlash, fuqarolik ongini rivojlantirish va insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirishdan iboratdir.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, ijtimoiy fanlar milliy ma'naviy meros va zamonaviy ilmiy tafakkur o'rtasidagi uzviylikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Sharq mutafakkirlarining insonparvarlik g'oyalari, axloqiy qarashlari hamda adolatli jamiyat haqidagi ta'limotlari zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy fanlarning rivoji fanlararo integratsiya jarayonlari bilan ham bog'liq bo'lib, bu holat ijtimoiy hodisalarni kompleks tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekiston taraqqiyot jarayonida ijtimoiy fanlarning falsafiy va axloqiy asoslarini chuqur tadqiq etish jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash, ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash hamda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy fanlarning metodologik asoslarini takomillashtirish, ularni zamonaviy global jarayonlar bilan uyg'unlashtirish hamda milliy qadriyatlar bilan integratsiya qilish kelgusidagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: О'zbekiston, 2021.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Ма'naviyat, 2008.
3. Эркаев А. Фалсафа. – Тошкент: О'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati нашриёти, 2018.
4. Тўйчиев Б., Йўлдошев С. Ижтимоий фалсафа. – Тошкент: Fan va технология, 2019.
5. Норкулов Х., Абдуллаев М. Фалсафа тарихи. – Тошкент: О'zbekiston, 2017.
6. Рахимов И. Жамият тараққиёти ва маънавий қадриятлар. – Тошкент: Ма'naviyat, 2020.
7. Abdizoitovich G. Educational Problems In The Information Society //Emergent: Journal of Educational Discoveries and. – 2025.

8. Usmonov F. Modern Science and Ethics: Scientific Humanism Based on Responsibility //Spanish Journal of Innovation and Integrity. – 2025. – Т. 43. – С. 163-167.
9. Tagaeva S. et al. Ensemble classifiers for news classification: Methods and applications //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2025. – Т. 3377. – №. 1. – С. 070009.
10. Ризаев И., Хаккулов Н. Синергетический взгляд на философию и общество в трудах Абу Насра аль-Фараби: ключевые принципы и современная значимость //Hikmet. – 2025. – Т. 4. – №. 6. – С. 44-59.
11. G‘aniyev E. yoshlarda axloqiy inqiroz kuchayishida ommaviy axborot vositalarining roli //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2025. – Т. 5. – №. 5. – С. 245-248.
12. Tavmuradov J. Mirzo Bedilning falsafiy va tasavvufiy g‘oyalarini shakllanishida adabiyot, til va uslub masalalari //«Acta nuuz». – 2025. – Т. 1. – №. 1.12. – С. 196-198.